

## O'QITUVCHI NUTQI — O'QUVCHI MOTIVATSIYASINI UYG'OTUVCHI ASOSIY OMIL

Mo'ydinova Odinaxon Mo'minjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi 1-kurs talabasi.

Email: [moydinovaodina307@gmail.com](mailto:moydinovaodina307@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20079161>

**Annotatsiya.** Nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi hech bir istisnosiz barcha fanlar bilan bevosita va bilvosita bog'liq. Nutq madaniyati o'qituvchida yuksak darajada bo'lishi shart. Bunda ovoz ham ahamiyatli. O'qituvchi nutqi jarangdor, aniq, turli shevaga xos so'zlardan holi bo'lishi kommunikativ qobilyati yuqori bo'lishi zarur. Dunyodagi har bir kasbni egallashda nutq madaniyati muhim quroldir.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik madaniyat, kommunikatsion nutq, diofragma, diapason, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat-ma'rifat, pantomimika, milliy qadriyatlar, estetik ta'sir.

**Аннотация:** Воспитание культуры речи прямо или косвенно связано со всеми школьными предметами без исключения. Педагог обязан владеть культурой речи на высоком уровне. В этом процессе голос также имеет важное значение. Речь учителя должна быть звучной, четкой, свободной от диалектизмов, а его коммуникативные способности — высокими. Культура речи является важным инструментом в овладении любой профессией в мире.

**Ключевые слова:** Педагогическая культура, коммуникативная речь, диафрагма, диапазон, образование и воспитание, духовность и просвещение, пантомимика, национальные ценности, эстетическое воздействие.

**Annotation:** The cultivation of speech culture is directly and indirectly linked to every single subject taught in school without exception. It is essential for a teacher to possess a high level of speech culture. In this regard, the voice also plays a significant role. A teacher's speech must be resonant, clear, free from dialectal words, and characterized by high communicative competence. Speech culture is a vital tool for mastering any profession in the world.

**Keywords:** Pedagogical culture, communicative speech, diaphragm, range, education and upbringing, spirituality and enlightenment, pantomime, national values, aesthetic impact.

### Kirish

Zamonaviy ta'lim taraqqiyoti jarayonida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi shaxs, balki o'quvchining ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi mahoratli motivator hamdir. Ta'lim samaradorligini belgilovchi ko'plab omillar orasida o'qituvchi nutqi alohida o'rin tutadi. Zero, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishi, dars jarayonidagi faolligi va intellektual ishtiyoqi bevosita pedagogning nutq madaniyati va muloqot san'atiga bog'liqdir. Nutq — bu shunchaki axborot uzatish vositasi emas, balki o'quvchi qalbiga yo'l topuvchi, unda o'ziga bo'lgan ishonchni uyg'otuvchi va dunyoqarashini shakllantiruvchi qudratli quroldir. Pedagogik faoliyatda nutqning jarangdorligi, aniqligi va emotsional bo'yoqdorligi darsning umumiy iqlimini belgilab beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining nutqiy mahorati yuksak bo'lgan sinflarda o'quvchilarning darsni o'zlashtirish ko'rsatkichi va motivatsiyasi sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy

saviyasini favqulodda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb, e'tirof etilgan. Bugungi kunda nutq madaniyati masalalari o'qituvchining nutqiy madaniyat mahorati farzandlarimizning madaniy nutq ko'nikmalari va malakalarini oshirish, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini yetarli darajada nazarda tutish har qachongidan dolzarbdir. Mazkur maqolada o'qituvchi nutqining kommunikativ xususiyatlari, ovoz diapazoni va notiqlik mahoratining o'quvchi psixologiyasiga ta'siri hamda dars jarayonida motivatsiyani oshirishning nutqiy mexanizmlari tahlil qilinadi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi nutqi shunchaki dars tushuntirish vositasi emas, balki: o'quvchi bilan emotsional aloqa o'rnatish; o'quvchining shaxsiy qadr-qimmatini oshirish; bilim olishga bo'lgan ehtiyojni (motivatsiyani) stimullash mexanizmidir. Biroq, zamonaviy raqamli ta'lim sharoitida o'qituvchi nutqining motivatsion kuchi va uning texnologiyalar bilan integratsiyasi masalasi hali ham qo'shimcha tadqiqotlarni talab etadi. Nutq bu og'zaki kommunikatsiya, ya'ni til yordamida munosabat qilish jarayoni demakdir. Ijtimoiy tajribada biron bir mohiyatni anglatadigan so'zlar og'zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. So'zlar eshittirib yo ovoz chiqarmasdan aytilishi, yozib qo'yilishi yoki karsaqov kishilarga biron bir mohiyatga ega bo'lgan imo-ishoralar bilan almashinishi mumkin. Odamlar o'rtasidagi munosabatni telegraf orqali axborot berishga o'xshatish mumkin emas. Odamlar munosabatiga aloqa bog'lovchilarning his-hayajoni ham qonuniy ravishda jalb etilgan. U kommunikatsiyaning mazmunini hisoblanishi nazarga ham, munosabatga ham, kirishganlarga nisbatan ham muayyan tarzda taalluqli bo'lib nutqiy fikr mulohazalar bilan qo'shilgan holda yuzaga chiqadigan bu his hayajonli munosabatda axborot ayriboshlashning alohida nutqsiz jihati o'zgacha nutqsiz kommunikatsiya tarkib topadi. Pedagog bitta so'zning o'zini o'quvchiga goho buyruq, goho iltimos, goho nasihat va hokazo ma'no baxsh etgan xilda turli ohangda talaffuz eta bilishi kerak. Nutqsiz kommunikatsiya imo-ishora, pantomimika, nutqning ohangidagi rangbaranglik ham rivojlana boradi. Kommunikatsiya jarayonida teskari aloqalar shakllanadi, ya'ni bola ham suhbatining yuzlaridagi ifodani o'qishga uning ohangida ma'qullash yoki ma'qullamaslik alomatini payqashga katta yoshdagi kishining so'zlariga ilova bo'ladigan va kuchaytiradigan qo'l-barmoqlari va yuz harakatining ma'nosini tushunishga o'rganadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotga bir qancha talablar qo'yiladiki, pedagogik jarayonlar davomida bularga qat'iy rioya qilish kerak.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ovoz. Ba'zilarga tovush tug'ma berilgan, lekin bu ham mashq qilib turilmasa buziladi. Kishi tovushini kuchli, egiluvchan, jarayonli qila olishi mumkin. O'qituvchi tovushining o'ziga xosligi nimada? Avvalo, bu tovushning kuchliligi hamda uning kuchli nutq apparati organlarining aktivligiga bog'liq. Tovushning uchuvchanligi, bu ovozni masofaga moslay olish, tovushni boshqara olishdir. Gipkost (egiluvchanlik) va podvijnost (harakatchanligi) tovushni yengil o'zlashtira olish, tinglovchilarga moslashdir. Diapazon tovushning hajmi. Uning chegarasi juda yuqori va past ton bilan aniqlanadi. Tembr tovush buyog'i, yorqinligi, shu bilan birga uning yumshoqligi, iliqqligi, o'ziga xosligi. O'qituvchida kasbiy kasallik kelib chiqmasligi uchun, albatta, tovush gigiyenasiga amal qilish kerak. O'qituvchi ish vaqtining 50% davomida gapirib turadi. Pedagog ish vaqti tugagach 2-3 soat davomida uzoq vaqt so'zlashishdan qochishi kerak. Zarur bo'lib qolsa, qisqa va sekin gapirishi kerak. Dars jadvali qo'yilishida shunga e'tibor

berish kerak. 3-4 soat darsdan so'ng nutq apparati charchaydi, shundan so'ng 1 soat tovush dam olishi kerak. Ko'p stajli, ya'ni tajribasi ko'p o'qituvchi 2-3 soatda charchaydi va 2 soat dam olishi kerak. Yuqori nafas yo'llari, asab tizimlari, ovqatlanish rejimiga e'tibor berish kerak. Diksiya so'z, bo'g'in, tovushning aytilishidagi to'g'ri va aniqlik. Diksiyani takomillashtirish nutq organlarining harakatini qayta ishlash bilan bog'liq. Maxsus mashqlar boshqariladi.

### **Xulosa (Conclusion)**

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki to'liq, mukammal shakllangan talab darajasidagi o'qituvchining umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim uzviy ta'bir joiz bo'lsa tamallaridandir. Jonli tovush nutq va uning barcha unsurlarini to'g'ri voqealashtirish ko'nikma va malakalarining jami nutq texnikasi demakdir. Kasbiga sadoqatli o'qituvchi o'z o'quvchisi ko'z o'ngida qusursiz va bilimli, qadrli ustoz ko'rinishida ko'rinadi. Uni saqlash esa har bir ustozning o'ziga bog'liq. O'qituvchi har doim o'z ustida ishlashi, yangiliklardan boxabar bo'lishi innovatsiyalarga ijobiy qarashi o'zi ham novator bo'lishi maqsadga muvofiq. Kichik sinflarda uztoz nutqi ravon, jarangdor, turli g'arazli vositalardan holi bo'lishi, umumiy tarbiya jarayoni uchun ham ijobiy ta'sir etadi. O'qituvchining ovozi, talaffuzi, dektsiyasi umuman tirik nutqi hamisha o'quvchilar uchun o'ziga xos etalon namuna vazifasini bajaradi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2010.
2. Safarova R. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: "O'qituvchi", 2008.
3. Qosimov A. Pedagogik nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent, 2015.
4. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – Toshkent: "Sharq", 2004. (Sharq mutafakkirlarining qarashlari uchun).
5. Mahmudov N. O'qituvchi nutq madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
6. Suxomlinskiy V.A. O serdtse otdayu detyam (Yuragimni bolalarga beraman). – Moskva: Prosveshchenie, 1983.
7. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Logos, 2004.
8. Leontev A.A. Pedagogicheskoe obshchenie. – Moskva: Znanie, 1979.
9. Deci, E. L., & Ryan, R. M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985.
10. Hattie, J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – Routledge, 2008. (Motivatsiya va o'qituvchi ta'siri bo'yicha eng yirik tadqiqot).